

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA “BOBURNING DAVLAT TARIXIDA TUTGAN O’RNI VA OBRAZLAR” TAVSIFI

Isoqulova Aziza Rustamovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davla O’zbek tili va adabiyoti Universiteti

O’zbek tili va adabiyotini o’qitish fakulteti 2-bosqich talabasi:

azizaisoqulova@17.gmail.com, Tel raqam: +99.890.811.17.06

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk o’zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman “Yulduzli tunlar” asaridagi bosh qahramonlar Bobur Mirzo, Xonzoda begim, Mohim begim va Tohir oftobachi kabi obrazlarning qahramonliklari yoritilib beriladi.

Boburning ichki kechinmalari, davlatni boshqarishda adolatparvarligi, Mohim begimning Boburga cheksiz muhabbati, Xonzoda begimning ukasiga mehr tuyg’usi, taxtdan voz kechgan Bobur Mirzo Tohir oftobachini uyida panohtopgani, umrining so’nggi kunlarigacha sadoqatli do’sti Tohir yonida bo’lgani badiiy mahorat bilan tahlil etilgan. Asarning syujet kompozitsion qurulishi asosida Bobur yashagan davr turadi. Barcha obrazlar va ularning harakatlari bir maqsadga qaratilgan bo’lib, Temuriy shahzodaning niyatlari, orzu-umidlari, g’alaba va mag’lubiyatlari u yashagan zamonning fitna-fasodlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Pirimqul Qodirov, “Yulduzli tunlar” romani, tarixiy obrazlar, tarixiy roman, ichki nizolar, millat taqdiri.

Аннотация

В данной статье освещается героизм Бабура Мирзы, Ханзода Бегима, Мохима Бегима, и Таира Афтобачи, главных героев исторического романа “Звездные ночи” великого узбекского писателя Пиримкула Кадырова, о том, что отрекшийся от престола Бакур Тахир укрылся в доме загорающего, и был со своим верным другом Тахиром до последних дней его жизни. Художественно проанализировано. Композиционное построение сюжета произведения основано на периоде, в котором жил Бакур – его надежды, победы и поражения служат для того, чтобы осветить испорченность загорова времени, когда он жил.

Ключевые слова: Пиримкул Кадыров, роман “Звездные ночи” исторические персонажи, исторический роман, внутренние конфликт, судьба нации.

Annotation

The article highlights the heroism of Babur Mirzo, Khanzoda Begim, Mohim Begim and Tahir Aftobachi, the main characters of the historical novel “Starry Nights” written by the great

Uzbek writer Pirimkul Qodirov. That Babur Tahir, who abdicated the throne, took refuge in the house of the sunbather and was with his loyal friend Tahir until the last days of his life. It is analyzed with artistic skill. The compositional construction of the plot of the work is based on the period in which Babur lived. His hopes, victories and defeats serve to shed light on the corruptions of the conspiracy of the time in which he lived.

Keywords: Pirimkul Kadyrov, “Starry Nights” novel, historical figures, historical novel, internal disputes, the fate of the nation.

Bobur Mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular, davlatni boshqarishda adolatparvarligi butun dunyoni lol qoldirgan. “Yulduzli tunlar” asari ana shunday mashhur o‘zbek kitobxonlarining yulduzidir.

Bobur Mirzo otasi vafot etgandan so‘ng yosh bo‘lishiga qaramay, taxtga o‘tiradi. Temuriylar sulolasini halokatdan qutqarib qolishi, bir-biriga qilich ko‘targan hattoki bir-birlarining qoniga tashna aka-ukalarning achinarli qismati aks ettirilgan.

Roman ikki qismdan iboratligi, birinchi qismda Movarounahr voqelari, ikkinchi qismda Afg‘oniston, Hindiston, Xurosonda bo‘lgan hodisalar aks ettirilishi Bobur shaxsiyatini birlashtiradi. Bobur o‘z diniy e‘tiqodini e‘zozlab, mashoyix va dindorlarni izzat-u ehtirom qilsa-da, ularni o‘z siyosiy muommolariga dohil bo‘lishiga imkon bermas va firqaparastlik xususidagi maslahatlarini qabul etmas edi. U, shuningdek, mazhab tabaqa va boshqa ixtilofli masalalarni saroyda tarqalishiga izn bermagan.

Asar faqat Bobur Mirzoga bag‘ishlanmay, balki, oddiy qora xalqning kechmishlarini ham tasvirlab bera olgan. Oddiy kambag‘al yigit Tohir sababli yuzaga kelgan ko‘prik hodisasi tufayli dushman ko‘p talofat ko‘radi va sulh tuzishga majbur bo‘ladi. Ne-ne beklarning qo‘lidan kelmagan xaloskorlik, qalblari vatanparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan tavakkalchi yigitlarning qo‘lidan kelgani hammani hayratga soladi va haqiqiy qahramonlik nima ekanligini, yurtga, tug‘ilib o‘sgan makonga muhabbat qanday bo‘lishini talab qiladigan fidoyilik bilan ko‘rsatib berishadi.

Asar davomida Xonzoda Begim tomonidan ko‘rsatilgan ko‘plab qahramonliklarga duch kelishimiz mumkin. Ulardan biri Bobur Samarqandda hayot va o‘lim orasida behush bo‘lib yotgan paytida, bundan xabar topgan Andijon qal‘a himoyachilarining bir qismi fitnachilar tomonga o‘tib ketadi. Aynan shu paytda Andijonga yov bostirib kelayotganini ko‘rgan Xonzoda Begim erkakcha to‘n, beliga kamar bog‘lab, xanjar osib, hayot-momotlari qil ustida turgan qal‘a himoyachilariga ko‘mak beradi. Bu harakatlari bilan u hatto o‘zbek yigitlari qo‘lidan kelmaydigan jasoratga qo‘l urgan. Xonzod Begimning yovqirligi Turon-u zaminning buyuk, mardonovar onasi To‘marsga qiyos etsak bo‘ladi. “Yulduzli tunlar” asarida qahramonliklarga juda boy, shulardan yana biri, Xonzoda Begimning o‘g‘li Xurramshoh yosh bo‘lishiga qaramay tog‘asi Bobur Mirzo uchun jonini hatarga qo‘yib, jangga kiradi va o‘q tegishi tufayli halok bo‘ladi. Bobur juda matonatli, chidamli, jasur, ilimli va adolatli

podshohdir .U juda ko'p hiyanatlar ko'radi. O'z rafiqasi Oysha Begim Boburni og'ir ahvolda tashlab ketadi. Dushmanlari turli hiyla- nayranglar qiladi lekin bu hayot sinovlari Boburni qaddini bukmaydi, hayotda olg'a intilishga undaydi. Bobur o'zini o'ylamaydi balki xalqni o'ylaydi, o'z vatanini kelgindilar qo'lida qolib ketmaslikni o'ylaydi. Xalq dardini eshitadi, ularga yordam qo'ini cho'zadi. Bobur ham boshqa podsholarga o'xshab, may , bazm bilan kunini o'tkazsa bo'lar edi lekin u kunduzi davlat ishlari, kechqurun esa adabiyot bilan shug'ullandi.

“Yulduzli tunlar” asarida adib ilk bor tarixiy mavzuga murojaat etdi, buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishga kirishdi. Asosiysi, jahon tarixi, xususan O'rta Osiyo va Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, markazlashgan davlat tuzib, ko'pdan ko'p xalqlarni qirg'inbarot urushlardan saqlab qolgan, murakkab qismatli podshoh, ne-ne jang-u jadallarda mahorat va jasorat ko'rsatgan sarkarda , she'rlardagi har bir satrda o'z ichki dunyosi, qiyofasi porlab turgan buyuk shoir, har bir so'zidan tarix nafasi keluvchi “Boburnoma” muallifi hamda dilbar tabiat siymosi bu darajada haqqoniy, teran gavdalantirilgan roman shu vaqtgacha o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham yaratilmagan edi. Shu ma'noda “Yulduzli tunlar” yozuvchi burchini namoyon etadigan asar deb e'tirof etilgan. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siymoning qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egalladi.

Adib butun asar davomida Boburning shoh, fotih, sifatida qilgan shafqatsizliklari uning katta gunihi ekanligini ta'kidlab boradi. Bobur garchi bobosi Amir Temur davlatini qayta birlashtirmagan bo'lsa ham Hindistonda tinch va osuda davlat tuza oldi. Bu haqida Rumer Goden : “ Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da , u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperator darajasiga ko'tarildi” degan fikrni ilgari surgan. Bobur tarixchi olim Xondamir bilan suhbatda deydi; “Toj-u taxt bevafoqligini ko'pdan ko'p sezib yuribman. Menga vafo qilsa faqat yozga asarlarim, ruboiylarim vafo qilmog'i mumkin. Vatanimga endi qayta olmasam ham asarlarim qaytmog'i mumkin. Endi orzuim- mening tug'ilgan yurtimga qila olmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa...”

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Bobur Mirzo shaxsining biz uchun bag'oyat qimmatli tomoni shundaki, eng og'ir damda ham u oliyjanob fazilatlarini saqlay bilgan. Fotihlikdan , shohlikdan insoniylikni ustun qo'ygan. Agar Bobur shunday qalbga ega bo'lmaganida, bunday go'zal g'azallar yarata olmagan , juda kata madaniy me'ros qoldira olmagan bo'lar edi. Bobur tariximizda buyuk shoir , xalqni buyuk millat darajasiga ko'tagan adolatli hukmdor bo'lib tarixda qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Yulduzli tunlar” “SHarq” nashriyoti – 2016.
2. W.W.W.Ziyo.uz.com. kutubxonasi.

<https://conferencea.org>

3. 3Nizomiddinovning “ Boburiylar davrida Hindiston turkiy tili va adabiyoti” . Toshkent, 2010, 46-48-betlar.
4. Boburnoma “Sharq” nashriyoti – 2002.
5. “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” Toshkent-2018
6. <https://tafakkur.net>
7. 11-sinf adabiyot
8. Sultonova 2018 “Ilm sarchashmalari” 2018-yil 8-son 190-193-betlar

